

HUQUQQA XILOFLILIK – IJTIMOY HAYOTGA XAVF SOLISHI

Abdushukurov Shuxrat Xolmatovich
Muxim Topshiriqlar Boyicha Inspektori

ANNATATSIYA

Mazkur maqola, Huquqqa xiloflik – ijtimoiy hayotga xavf solishi haqida bo'lib ijtimoiy xavflilik jinoyatning obyektiv tomonini aks ettirib, u jamiyatga, fuqarolarga zarar yetkazashi haqida qisqacha mazmunda tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: Jinoyat-huquqiy vositalar, ijtimoiy xavflilik, jinoyatning formal belgisi, jinoyatning obyektiv tomoni.

Huquqqa xiloflik – ijtimoiy xavfli qilmishning jinoyat qonuni bilan taqiqlanganligini ifodalaydi. Bu belgi qonuniylik prinsipining “qonunda ko'rsatilmagan bo'lsa, demak jinoyatning o'zi yo'q” degan qoidasidan kelib chiqadi. (“Nullum crimen sine cupla”). Huquqqa xiloflik jinoyatning yuridik belgisi bo'lib, keng ma'noda:

birinchidan, jinoyat qonuni bilan ijtimoiy xavfli va aybli qilmishlarning taqiqlanganligini; ikkinchidan, jazo qo'llash tahdidini bildiradi[7].

Bundan tashqari, bu belgi “Jinoyat qonunining analogiya bo'yi-cha qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi” degan qoidani ham o'z ichiga oladi.

Demak, jinoyat huquqqa xiloflik deganda, jinoyatlarning jinoyat huquqiy normalarda ko'rsatilgan jazo qo'llash tahdidi bilan taqiqlanishi tushuniladi.

Qilmishni jinoyat huquqiga xilof deb topish asoslari bo'lib:

- a) bunday qilmishning ijtimoiy xavfliligi – (jinoyat huquqqa xiloflikning asosiy mezon);
- b) u yoki bu qilmishga aynan jinoyat-huquqiy vositalar bilan ta'sir etishning umumiyliigi (bir xil maqsadni ko'zlashi) hisoblanadi.

Ma'lumki, ijtimoiy xavflilik jinoyatning obyektiv tomonini aks ettirib, u jamiyatga, fuqarolarga zarar yetkazadi. Lekin qonun jinoyat tufayli zarar yetkazilgan shaxslarning manfaatini himoya qilib, ijtimoiy xavfli qilmishga huquqqa xiloflik maqomini beradi va bu bilan davlat huquqqa xilof qilmishlarga qarshi choralarini ko'radi. Demak, ijtimoiy xavfli qilmish huquqqa xilof deb e'lon qilingan vaqtdan boshlab u amaliy jihatdan “jinoyat” maqomini oladi va ma'lum bir oqibatlariga olib keladi. Shunday qilib, huquqqa xiloflik ma'lum bir ijtimoiy xavfli qilmishga qarshi kurashish - davlatning mutlaq vakolati ekanligidan darak beradi. Ya'ni qilmishni huquqqa xilof deb topish uning davlat tomonidan ijtimoiy xavfliligini rasman belgilanishini bildiradi. Qilmishning jinoyat qonuni bilan taqiqlanishi uning ma'lum darajada ijtimoiy xavfli deb topilganligini anglatadi. Shuning uchun ham qonunda qilmishning jinoyat deb belgilanishi uning huquqqa xiloflik xususiyatini ko'rsatadi.

Qilmishni “kam ahamiyatli” deb topish sud, prokuratura, tergov va surishtiruv organlarining vakolatiga kiradi. Agar qilmish “kam ahamiyatli” belgisiga ega bo'lsa, jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin emas, qo'zg'atilgan jinoyat ishi esa jinoyat tarkibi mavjud emasligi tufayli tugatilishi kerak. Qilmishning kam ahamiyatli ekanligi sodir qilingan qilmishdagi belgilar (sodir etish usuli, motivi, maqsadi, darajasi va hk.) orqali bilib olinishi mumkin. Jinoyat sodir etilganidan keyingi holatlar – chin ko'ngildan pushaymon

bo'lish, yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda qoplash, aybdorning hayotiy faoliyati, oilaviy ahvoli kabi holatlar qilmishni kam ahamiyatli deb topish uchun e'tiborga molik emas.

Demak, ijtimoiy xavflilik jinoyatning moddiy (tashqi) belgisini ifodalaydi. Jinoyatning ijtimoiy xavfliligiga ikki guruhdagi omillar:

- 1).Kriminologik – jinoyatchilikni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar, sabablar, ularning oldini olish;
- 2).Jinoyat-siyosiy – jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy yo'nalishlari, jinoyat qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlari, jazo tayinlash amaliyoti ta'sir etadi[6].

Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda xulosa qilib, quyidagi asosiy tushunchalarni ko'rsatib o'tish lozim:

- a)ijtimoiy xavfli qilmish – jinoyatning obyektiv tarkibini ifodalaydi;
- b) ijtimoiy xavflilik qonunda qilmishning jinoiyligini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;
- c) ijtimoiy xavflilik - aybdor shaxsni javobgarlikka tortish uchun asos bo'la oladi;
- d) ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasi jinoyatlarni tasniflashning asosiy mezonini hisoblanadi;
- e)ijtimoiy xavflilik – jinoyatlarni jinoiy bo'lmagan huquqbuzar-liklardan va kam ahamiyatli qilmishlardan farqlash imkonini beruvchi jinoyatning muhim tarkibi hisoblanadi.

Ijtimoiy xavflilik jinoyatning moddiy belgisi bo'lsa, jinoyatning formal belgisi – uning huquqqa xilofligi hisoblanadi.

“Shaxsning unday yoki bunday xulq-atvori, uning shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, g'ayriqonuniy deb topilgunga qadar jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.”[8]

Jinoyatning huquqqa xiloflik belgisining mohiyati shundaki, huquqqa xilof qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ga u yoki bu vakolatli mansabdor shaxslar (huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari) tomonidan qanday baho berilishidan qat'i nazar, bunday qilmish uchun qonunda javobgarlik belgilanmaguncha formal jihatdan ijtimoiy xavfli deb hisoblanmaydi.

Jinoyat kodeksining 65-moddasida qilmish yoki shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik-dan ozod qilinishi belgilab qo'yilgan. Bunday holatda “qilmishning va shaxsning ijtimoiy xavfliligi yoki ularning o'z ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi faqat qonun bilan belgilanadi” degan xulosaga kelish kerak.

Huquqqa xiloflikni belgilashda Jinoyat kodeksining faqat Maxsus qismi normalariga tayanmasdan, Umumiy qism institutlari ham e'tiborga olinishi shart. Umumiy qism normalari Maxsus qism normalarini mustahkamlab, Maxsus qism normalarining buzilishi Umumiy qism normalarining buzilishiga olib keladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Уголовное право. Общая часть. Учебник // Под. ред. Н.И. Ветрова, Ю.И. Ляпунова. -М.: Новый Юрист, КноРус, 1997. – С. 125.
2. Ветров Н.И. Уголовное право. Общая часть: Учебник для вузов. –М.: ЮНИТИ – ДАНА, Закон и право, 1999. – С. 46, 47
3. Уголовное право. Общая часть. Учебник // Под. ред. Н.И. Ветрова, Ю.И. Ляпунова. -М.: Новый Юрист, КноРус, 1997. – С. 125, 126.
4. Ляпунов Ю.И. Общественная опасность деяния как универсальная категория советского уголовного права. – М., 1989, -С.39.

5. Ветров Н.И. Уголовное право. Общая часть: Учебник для вузов. –М.: ЮНИТИ – ДАНА, Закон и право, 1999. – С. 48.
6. Курс уголовного права. Общая часть. Том 1: Учение о преступлении. Учебник для вузов. Под. ред. док. юрид. наук. проф. Н.Ф. Кузнецовой и канд. юрид. наук. доцента И.М. Тяжковой. -М.: Изд. Зерцало, 1999. – С. 128, 129.
7. Курс уголовного права. Общая часть. Том 1: Учение о преступлении. Учебник для вузов. Под. ред. док. юрид. наук. проф. Н.Ф. Кузнецовой и канд. юрид. наук. доцента И.М. Тяжковой. -М.: Изд. Зерцало, 1999. – С. 128, 129.